DISKURS ATAMASINING TAHLILI

Isroilova Dilbarxon Ikramovna

Andijon Davlat Tibbiyot Instituti

Diskurs(Nutq) murakkab kommunikativ hodisa bo‘lib, u matndan tashqari bir qator tilga oid bo‘lmagan omillarni ham o‘z ichiga oladi, masalan kommunikatsiya maqsadi,vaziyatga qoyilgan munosabat,kommunikatorlarni bir-biriga bolgan munosabatlari va natijalaridir.

Milloddan avvalgi 4 asrlarda Aflotun va Arastudek qadimgi Yunon mutafakkirlari ‘’Diskurs’’ atamasidan muloxaza qilish, fikrlash,dalil, asos kabi ma’nolarda foydalanganlar.

Falsafiy qarashlardagi o’zgarishlar,lingvistik faoliyatning rivojlanib borishi sababli ‘’diskurs’’ tushunchasi yangi semantik o’zgarishlar bilan kengayib bormoqda.

Diskurs -xarakatlarning har qanday muhim tomonlarini va uning ishtirokchilarining bayon qilish usullarini muxokama qilish va asoslashga qaratilgan nutq aloqasinig bir turi sifatida o’rganib kelinmoqda.Diskurs tushunchasiga xozirda fikrlarni rasmiylashtirish reja va maqsadlarni taxmin qilish va ularni tushuntira olish, shu bilan birga qanday qabul qilinishini izoxlab berish turlari xam kopayib bormoqda, bularning barchasini negizida qonuniyatlar va yangi tasniflash mezonlari ekanligi ma’lum bo’di.

Diskurslar turlari bo'yicha (shaxsiy yoki maqom yo'nalishi), janr bo‘yicha (suhbat, monolog, hikoya, suhbat, so‘roq, iqror va boshqalar), fikrlarni yetkaza olish yollari, uzatish yo'li bilan (og'zaki/yozma),uslublar boyicha(ilmiy,rasmiy adabiy) tuzilishi bo'yicha (diskursiv birliklarning xilma-xilligi) farqlanadi.

1.Turlari boyicha farqlash deganda bizga diskurs kimlar tomonidan amalga oshirilayotgani ahamiyatlidir.Diskurs olib boruvchining maqomi yani rahbar inson xodimlari bilan yoki aksincha hodimlar rahbarlai bilan, ota –ona farzandi bilan yoki yana aksincha farzandni ota onasi bilan,dostlar,tengdoshlar,kasbdoshlar bir-biri bilan,savdogarlar mijozlari bilan va boshqa kasb egalarini egalab turgan lavozimidan kelib chiqgan diskurslari nazarda tutiladi.Shaxsiy diskurslar shaxslar bir xil bolmaganidek ular xam xar xil boladi, bunga madaniy,tarbiyaviy, ishtimoiy kelib chiqish, intelektual,hududiy o’ziga hoslik sabab boladi.

2.janr bo‘yicha diskurslar ya’ni suhbatlar, monologlar yoki hikoyalar ularni ma’no , mavzusiga, qanchalik darajada muhimligi va ahamiyatiga, tinglovchining qiziqishi va so’zlovchining sozlash usuliga, sozamolligiga qarab farqlanqadi.Bunda soroq, iqror, maslahat, nasihat,afsus va nadomat,shikoyat va taklif qilish orqli nutq boyib o’z ahamiyatini oshiradi

3.Diskurs fikrlarni og’zaki yoki yozma holatda uzatish yoli bilan xam turlanadi,bunda rasmiy va norasmy shakllari mavjud.

3.1 Yozma nutq bu ma’lum davrda muallif fikrlarini xotirjam holatda yig’ib,ularni tahlil va taxrir qilish imkoniyatiga ega bolgan diskursiv faoliyatdir. Diskursiv faoliyat monolog, dialog, polilog ko’rinishida boladi

Rasmiy yozma diskurslarda bo’yoqdor so’z va gaplardan foydalanilmaydi,balki neytral leksikadan,adabiy yozma leksemalardan va so’z birliklari hamda sohaga tegishli atamalardan

foydalanib aniq maqsad ,reja va uning ta’sir oqibati,ehtimolli natijalar,ikki tomon uchun foyda va zararlari, qisqa va aniq ko’rsatmalar,ogohlantirishlar, shikoyat va takliflar,yoki biror voqealikning bayonati aks ettiriladi.

Norasmiy yozma diskurslar bu yozuvchining yetkazmoqchi bo’lgan axborotlarida,takliflarida yohud biror hissiyotlarni bayonqilishda ,fikr mulohazalarni yetkazishda ,voqea –tadbirlarni tariflab berishda chegaralanmagan leksemalardan foydalanilmagan aniq gramatikqonun –qoidalarsiz ham tuzilgan matnni yetkazish ,uzatish yolidir.

Norasmiy yozma diskursar aksariyat hollarda kimlar orasida yaratilayotgani muhimroq bolib, bunda ozlariga mos nutq tanlanib ,erkin leksemadan foydalaniladi ,hamma uchun tushunarli sodda iboralar ,gaplardan iborat monolog polilog va dialoglardir.

3.2.Rasmiy og’zaki diskurslar ham boyoqdor soz va iboralarsiz ,rasmiy ohangda aniq maqsad bilan yonaltirilgan ,neytral leksemadan ,adabiy sozlardan ,sheva zozlaridan holi jumlalardan ,maxsus sohaga tegishli atamalar bilan rasmiy davlat tilida nomoyon boladi.Bunday diskurslar qonun va qarorlar, moddalar asosida ham yaratiladi.Rasmiy diskurslar davlat yoki davlatlar aro ,sud jarayonlari,axborot tizimida ,katta va kichik tashkilot yig’ilishlari, majlislaida keng qollaniladi,bunda haqoratli soz va iboralar qatti’an man qilinadi.

Norasmiy og’zaki diskurslar so’zlovchi va tinglovchi o’rtasidagi dialog yoki so’zlovchi gapirib turgan vaqtda hosil bo’lib , bu jarayon tugashi bilan nutq diskurs ham tugaydi,biroq nutq tasirida hosil bo’lgan emotsiyalr,axborotlar,tushunchalar diskurs ishtirokchilari xotirasida saqlanib qolishi mumkin va uning keying xarakatlariga ,ruhiy holatiga va hulqiga ta’sir ko’rsatish mumkin.Og’zaki diskurslarni tezlik bilan amalga oshishi tushunchalar bilan sozlarni bir biriga moslashishiga bogliqdir,chunki ba’zan tushuncha bor lekin tushuntirish uchun so’z boyligi kamlik qiladi yoki kerak bolgan vaqtda osha soz zahirada bolsada nutqda aks ettira olmaydi yoki mos kelmagan boshqa bir sozdan foydalaniladi bu esa kutilgan, istalgan natijani bermaydi.Og’zaki diskurslarda sozlar,soz birikmalari,gapning morfologiyasi yetkazilmoqchi bo’lgan fikrga mos holatda tezlik bilan tanlanadi va fikrni davom ettirish uchun nutqda ifoda qilingan qismi xotirada saqlanib turgan holda davomi rivojlantiriladi,aks holda grammatik boglana olmaydi va gap mantiqan buziladi. Ogzaki nutq qanday holda paydo bolgan bolsa shundayligicha tinglovchiga yetib boradi va o’z tasirini o’tkazib ,natijani tahlil qila boshlaydi chunki bunday diskurslar taxrir qilinmaydi.Ogzaki nutq(diskurs) da muloqat uchun zarur bolgangina malumotlar eriladi ,chunki vaqt va nutq kuchini tejashga extiyoj boladi.Ogzaki diskurslarda ohang, to’xtam, urgu, jestlar nazarda tutilgan fikrni tinglovchiga yetib borishida juda kata axamiyatga ega.

Diskurslar uslublar boyicha ham farqlanganida, ilmiy uslubga ahamiyat beriladigan bo’lsa , Ilmiy uslub –fan tili bolib , ilmiy faoliyat uchun foydalaniladi.Ilmiy uslubda adabiy normalarga qatian rioya qilingan holda jamiyat va tabiatdagi obyektlarni fizikaviy ishtimoiy,siyosiy,moliyaviy, madaniyva ta’limiy jarayonlarni yoki biror fanga tegishliilmiy ,nazariy izlanishlarni aniq faktlarga asoslangan ma’lumotlar, nazariyalar berilishida mohiyati yoki etimologiyasi tushuntirilib ,tahlil qilishda,dalillar keltirib isbotqilishda boyoqdor so’zlarsiz ,muallifning shaxsiy fikrlarisiz,fanning o’ziga tegishli va shu fan sohasidagi mutahasislar uchungina ma’um bo’lgan terminlar,shartli qisqartmalar,ramziy belgilar,raqamlar ,formulalar ishtiroki asosida yasaladi va uzatiladi. Ilmiy uslubda ilmiy atamalar ahamiyatlidir va sohaga oid atamalar leksikasidan tashkil topadi.Ilmiy uslubni ilmiy asarlar tili

bilan adashtirmaslik kerak chunki ilmiy asarlar tili nafaqat terminlardan balki umumxalq so'zlar va abstract leksikadan ham foydalaniladi.

Ilmiy uslub diskurslari mazmunan ilmiy tadqiqot va ilmiy ommabop diskurslarga bolinadi. lmiy tadqiqot diskurslari ilmiy tadqiqotlariga, ilmiy izlanishlarga asoslangan mahsulotdir va bunday ijodiy ishlar o'sha soha vakillariga tushunarli boladi.

Ilmiy asarlarda esa kopchilikka no'malum, qiyin bolgan diskursni sharhlab, o'zga soha vakillari uchun tushunarsiz bolgan terminlarni oson yollar bilan tushuntirilib, izohlab beriladi va bunda murakkab atamalardan foydalanilmaydi.

Adaby uslub – matnlarda aniq ifodaga ega uslubiy boyoqdor va betaraf til unsirlaridan ongli ravisda tanlash asosidagi tizimdir.bunda funksional uslub yani uslublar o'ziga hosligi ularning ishlatilsh doirasi ,uslublarning qollanilish sohasiga oidligidir. Adabiy tilining publisistik yoki professional- texnik uslblaridan, boshqa funksional uslublarda bo`lganidek, til vositalarini tanlash va tartibga keltirish shu matnlarning mazmuni, mohiyatini hamda ishlatilish sohasining o`ziga xos xususiyati bilan bog`langan. Funksional uslublar bilan bir qatorda individual uslublar mavjud ,unda muallif o`z individual nuqtai nazari va didiga mos ravishda tilning sinonimik ifoda vositalaoini tanlab oladi. Individual uslublar asosan badiiy asarlar tilida qo`llanadi, unda qayta uslubiy bo`yoq oladi. Turli janrlarga va adabiy - badiiy yo`nalishlarga xos uslublar bilan birga ishlatiladi. Bu o`z navbatida badiiy asarlarda yozuvchi tili va yozuvchi uslubini farqlash zarurligini ham keltirib chiqaradi. O`zbek adabiy tilida quyidagi uslub turlarini ko`rsatish mumkin:

a) Adabiy-badiiy uslub. Bu tur tarkibida nazm uslubi va nasriy uslubning xususiyati bilan bog`liq ravishda bir qancha guruhlar ajratiladi;

b) Ilmiy bayon uslubi. Turlicha fan sohalarining xususiyatlari bilan bog`liq ravishda bu tur ham bir qancha guruhlarga (iqtisodiy fanlar uslubi kabi) bo`linadi;

v) Ijtimoiy-publisistik uslub. Ya`ni turli ijtimoiy-siyosiy mavzularda yozilgan asarlar (maqolalar, ocherklar kabi) uslubi;

g) Ishlab chiqarish texnik uslub. Bunga turli kasblar va texnikaga doir asarlar uslubi kiradi;

d) Rasmiy hujjatlar, maxsus ish yuritish uslubi. Bu o`z navbatida, qonunlar, har xil buyruqlar va farmonlar, ish yuritish hujjatlari kabilar kiradi;

e) Adabiy tilning alohida uslub turi sifatida yozishmalar, nomalar va xatlarga doir uslubini ko`rsatish mumkin.

Adabiy til tarixining turli davrlarida uning uslublari, ularning xizmat doiralari ham o`zgarib turadi. Ammo barcha uslublar uchun o`zbek adabiy tilining grammatik qurilishi va keng iste`molda bo`lgan «betaraf» so`zlar umumiy bo`lib qoladi.